



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI

**“O'ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMANI TO'PLAMI

Toshkent
2024-yil, 17-aprel

UO'K:378.147(575.1)

KBK 83.3

“O‘zbek filologiyasi: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari [Matn] / — Toshkent: “Anorbooks”, 2024. — 366 b.

Mas’ul muharrir:

Q.Yo‘ldoshev

pedagogika fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:

Rahmonova Sh.,

filologiya fanlari doktori, dotsent;

Matyoqubova T.,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Ahmedov H.,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Jabborova M.,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Madaminova M.,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;

Dedaxonova M.,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;

Nazarova D., katta o‘qituvchi;

Maqsudov H., o‘qituvchi;

Oripova M., o‘qituvchi;

Muhammadaliyeva Sh., o‘qituvchi;

Berdiyeva D., o‘qituvchi.

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti “Ona tili va adabiyot ta’limi” fakulteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasи tomonidan “O‘zbek filologiyasi: muammo va yechimlar” mavzusida 2024-yil 17-aprelda o‘tkazilgan respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin.

ISBN: 978-9943-8958-5-0

xonadonda o'nlab yangi iste'dodli ijodkorlar kashf etilmoqda. Ijodkorlar umri ularning yashab o'tgan yillari bilan emas, asarlari bilan o'lchanadi. Bugungi kunda o'zbek va qardosh qirg'iz xalqi hofizlari Robiddin Is'hoqov she'r va g'azallarini kuyga solmoqdalar. Ijodkorlarning arxividagi daftarlarda qolib ketgan qo'lyozmalari hamon chop etilib, o'z muxlislariga yetkazilmoqda. Shoир aytganidek:

Donolar aqlidan yasalsa kema,
Aql dengizida suzardi hamma [3,5].

Ushbu misralar hamon o'z ahamiyatini yo'qotmay, yillar davomida insonlarni ilmga bo'lgan ishtiyoqini oshirib kelmoqda. Badiiy ijod va muallimlikni hamohang tarzda baravar yuqori darajada yuritish kishidan katta mas'uliyat va mehnat talab qiladi. Robiddin Is'hoqov mana shu mas'uliyatni anglagan holda, xalqimiz orasida adabiyotni targ'ib qilgan, aslo tinim bilmagan ijodkorlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Is'hoqov R. Hayqiriq. – Namangan: "Namangan" nashriyoti, 1997.
2. Is'hoqov R. Quvnoq lahzalar. – Namangan: "Namangan" nashriyoti, 2002.
3. Is'hoqov R. Xalqnomा. – Namangan: "Namangan" nashriyoti, 2007.
4. Is'hoqov R. Pedagog o'ylari. – Namangan: "Vodiy Media", 2022.
5. Is'hoqov R. Harko'ngil topsin murod. – Namangan: "Vodiy Media", 2022.

HIKOYA JANRIDA BADIY DETALNING POETIK VAZIFASI

Azamat Xayrullayev,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU Jahon adabiyoti va
qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasи katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada hikoya janr xususiyatlaridan kelib chiqqan holda badiiy detalning poetik vazifasi haqida so'z boradi. Shuningdek, detalning o'ziga xos ko'rinishdagi turlari haqida ham to'xtalinib, uning badiiy matn tarkibida tutgan o'rni N.Norqobilov hikoyalari misolida tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: hikoya, janr, kompozitsiya detal, badiiy detalning turlari.

Hikoya janrining nazariy-estetik tabiatidan kelib chiqsak, yagona hayotiy voqeanning tarif-tavsifi asosida A.Qahhar "O'g'ri", "Bemor" va "Ko'r ko'zning ochilishi" hikoyalarini yaratibgina qolmasdan birgina detal zamiriga "Anor" hikoyasini qurgani bizga ma'lum. Demak, janrning xusuyiyatidan kelib chiqilsa hikoya-da detalning ahamiyati anchayin ulkan ekanı oydinlashadi. Avvolo, badiiy detalni qo'llay olish ijodkorning uslubiy mahoratiga bog'liq. Shunga ko'ra uni bir qancha turlarga, muhimi, yozuvchining badiiy niyatidan kelib chiqib, guruhlarga tasnif qilish mumkin. M.Veller detalning rang, tovush, hid, ta'm, ko'rish va xis qilish kabi inson sezgi a'zolari orqali bilish mumkin bo'lgan o'ziga xos turlari haqida yozgan edi. Adabiyotshunos Y.Solijonov Sh.Xolmirzaevning uchta hikoyasining tahliliga bag'ishlangan "Detallar tilga kirganda" maqolasida yozuvchi asarlarining quyidagi jihatlariga diqqat qiladi, "Hikoyalarning boshlanishidannoq butun voqelikka tatigulik muhim detallarga duch kelamiz. Etibor bering-a: 1."O'sha pastlikka egilib o'zgan gujumcha ostida o'tiribman. Kursida. Kursining oyoqlari yerga botib ketgan. Namgarchilik-da. Aytdim-ku, yo sakkizinch, yo to'qqizinch may edi... Jiydalar gullagan. Unisining shoxida bir bulbul sayrasa, bunisining shoxida bir bulbul sayraydi. Xo'roz-makiyon." ("Quyosh-ku falakda kezib yuribdi"). 2. "Yomg'ir shunday kuch bilan quya boshladiki, bekat ayvonida turishning iloji qolmadidi. Buning ustiga g'uvillab shamol esar, yomg'irni bukib-qayirib ayvon ostiga urar edi..." ("Bulut to'sgan oy"). 3. "Do'lana shunday turibdi. Yo-yolg'iz deng. Atrofda na'matak butalariyam yo'q. O'smaydi-da bu suvsiz toshloqda. Ammo do'lana! Qoyilman: suvni qaerdan ichar ekan? Ha-ha, tomiri chuqur ketgan-da, yantoqqa o'xshab. Kungay tomonida oppoq-oppoq gullari ochilib turar edi" ("Kuzda bahor havosi").

Hikoyalardagi "gujumcha", "yomg'ir", "shamol", "do'lana" peyzaj-manzarani to'ldirish, tasvirni

kuchaytirish niyatida keltirilgani yo‘q, balki hikoya qahramonlarining xarakteriga, tabiatiga, taqdiriga u yoki bu darajada daxldor detallardir”. Adabiyotshunos maqolada Sh.Xolmirzaev hikoyalarining sarlavhasi va unda qo‘llangan detallar aro sematik-struktur munosabatga jiddiy ahamiyat beradi. Keltirilgan parcha dan anglashilganidek, olim hikoyalarning tabiat tasviri bilan bog‘liq detallariga urg‘u beradi. Shunga tayangan holda biz mazkur detallarni peyzaj detal deb olimiz. Peyzaj detallar N.Norqobilov hikoyalari misolida ham ko‘p uchraydi. “Zangori ko‘l”da ko‘l va jarlik, dasht, “Do‘sstar”da jarlik, “Enatepa”da tepalik, “Dashtda” hikoyasida dasht singari detallar janr tabiatidan kelib chiqib muhim poetik vazifa bajaradi. Umuman adib hikoyalarda peyzaj detallarning o‘rni katta. “Dashtda notanish kelinchakni kuzatib borarkan, oqshom bu ishi uchun juvonning xeshlaridan boplab kaltak yeyishini xayoliga ham keltirmagan holda egarda alplardek mag‘rur o‘tirardi. Yomon tili tufayli eridan nasibasini olib, qishlog‘iga arazlab ketayotgan kelinchakning hadikli qarashlarini sezmas, qilayotgan bu ishidan masrur holda borardi. Axir, yigirma odimcha oldin pildir ab ketayotgan ojizaga panoh edi-da. U bor ekan, biydek bu dashtda hech kimsa unga dahl qilolmaydi-da”.

1983-yilda “Yoshlik” jurnalida e’lon qilingan “Zangori ko‘l” va “Ro‘molcha” hikoyalari haqida “Hikoyada ro‘molcha detali voqealarning badiiy tahlili jarayonida katta ramziy ma’no kashf etadi”. – deb yozgan edi yozuvchi Ne’mat Aminov. Hikoya syujetida badiiy detal muhim ahamiyatga ega bo‘lish bilan birga, qahramonlar taqdirida katta rol bajargani uchun asar sarlavhasi darajasiga chiqishi mumkin. Masalan, yozuvchining “Ro‘molcha” hikoyasini oladigan bo‘lsak u “...xarakterli bir detal -oddiygina ro‘molcha bilan bog‘liq hodisalar asosiga qurilgan. Hikoyada oshiq-ma’shuqlarga dahldor, tasodifan bola qo‘liga tushib qolgan, bosh hoshiyasiga qizil ipak bilan to‘r to‘qilgan, bir chetiga esa oshiq - ma’shuqlar ismining bosh harfi chatilgan oddiy sariq ro‘molcha bir necha personajlar bisotini ochib beruvchi sehrli vazifasini o‘taydi. Asarni o‘qiganda shu narsa ma’lum bo‘ladiki, yigitga taqdim etilgan ro‘molcha - qizning butun qalb qo‘ri, orzu-umidlari ramzi; yigit ro‘molchani tushirib qoldirgan ekan, bu shunchaki tasodif emas, balki qizning aziz tuyg‘ulariga napisandlik, befarqliq oqibati, hikoya pirovardida ayon bo‘lgan xiyonatning ibtidosi; tasodifan bola qo‘liga tushib qolgan bu ro‘molcha uning hayolini alg‘ov-dalg‘ov qilib yuboradi, shu ro‘molcha tufayli u qizning aziz tuyg‘ulari, qalb saxovati va cheksiz iztiroblariga sherik tutadi, soxta oshiqning qallobligi, xiyonati va jinoyatdan ogoh bo‘ladi; bu alamlarga dosh berolmay hushdan ketadi; pirovardida yana o’sha tanish sehrli detal- sariq ro‘molchaga duch kelamiz. Yo‘q, bu qiz yigitga taqdim etgan, yigit tashlab ketgan ro‘molcha emas, bola topib bergen aziz bisot o‘rniga, uning so‘roviga ko‘ra qiz taqdim etgan boshqa bir sariq ro‘molcha; yigit xiyonati, qiz halokatidan keyin bola uchun nihoyatda ardoqli bu ro‘molcha u hushdan ketganda buzoq yamlab tashlagan holda ko‘ramiz... Shu tariqa hikoyada oddiy detal jiddiy ma’nodorlik kasb etib, muayyan badiiy maqsadga xizmat qiladi”. N.Norqobilov ijodining dastlabki yillaridan boshlab badiiy matnda detalning poetik funksiyasining o‘rni katta ekanligini chuqur anglagan. Ayni ijodining ilk davrida yaratilgan “Kapalak” hikoyasida ham detal muhim semantik-struktur funksiyani bajargan. Umuman, badiiy detal funksianalligi jihatidan hikoyada muhim o‘rin tutadi. “Detal nihoyatda xarakteri xilma-xil. Detal “avtorники” ham, “qahramoniki” ham bo‘lishi mumkin. Detal nutqda, peyzaj, poetret va boshqa tasviriy vositalarda bo‘lishi ham mumkin. Lekin ularning ahamiyatio, albatta, asar g‘oyasi bilan obraz va personajlar ni xarakterlashdagi xizmati bilan belgilanadi”. Adib hikoyalarda badiiy detalni mohirlik bilan qo‘llaydi. Birgina “non” detalini biz adibning “Alam” va “Judolik quvonchi” hikoyalarida qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin. Har ikkala hikoyada ham detal muallif badiiy niyatini ifodalaydi. Non detalni oraqlari hayotning jiddiy axloqiy-ma’naviy muammollari ochib beriladi.

Yozuvchi “Alam” hikoyasi qahramoni Nodirning xarakterini non detalni orqali ochib beradi. Hikoyada Nodir va Tolib aka o‘rtasidagi ziddiyat ko‘rsatiladi. Tolib aka butun umrini xalol mehnati bilan temiryo‘l stansiyasida o‘tkazgan, Nodir esa tajribasiz bo‘lsa-da, buni tan olgisi kelmaydi. O‘zini boshliq ekanini ko‘rsat moqchi bo‘ladi.

“Tungi smenada yuz bergen «ChP»ni sharblay turib kollektivni hushyorlikka chaqirmoqchiydi u. Ammo maza qilib gapirayotgan edi. Hamma og‘zingga tikilib tursa, gap degan ichingdan qaynab chiqaverarkan. Shunda deng, bir chekkada g‘ijinib o‘tirgan Tolib aka qaynab turgan qozonga to‘satdan bir parcha muz tashlab yuborsa bo‘ladimi. «E, bo‘ldi-da endi, buncha cho‘zg‘ilaysan!» Nodir buzur qilib chaynayotgan luqmasidan tosh chiqqanday bir qalqib tushdi. Dovdirab qolib og‘zidan chiqqaniyam, shu bo‘ldi: «Agar yoqmayotgan bo‘lsa, marhamat, chiqib keting!» «Vaqt... – chol bilagidagi soatga nuqidi.– Nima qilasan

bekorchi gaplar bilan boshni qotirib! Lo'nda qilib ayt-qo'yda!» Shundan so'ng Nodir u dedi, Tolib aka bu dedi, axiyri chol «Ezma-churruk!» deya eshikni taraqlatib yopib chiqib ketdi”.

Asar boshida Nodir Tolib aka bilan majlisda bo'lgan arzimas tortishuvdan keyin undan o'ch olmoqchi bo'lib qulay vaziyatni kutadi. Shunday vaziyat paydo bo'lishi bilan u Tolib akadan o'ch oladi. "Nodirning ko'ngli birdan ravshanlashganday bo'ldi: qasos daqiqalari yetib kelgan edi! Ana endi, bu cholning popugini shunday pasaytiradi-ki..."

- Nima qilganingiz bu?! Esingiz joyidami?! Qani, yuring! Siz bilan boshqa yerda gaplashamiz!

Tolib aka, ko'zi yerda g'ujanak bo'lib yotgan Zokir chapanida, es-hushini yo'qotgan bir ahvolda shalvir-ab turardi. Nodir yosh bolani turtkilaganday, uning yelkasiga turtgandan so'nggina, chol itoatkorona unga ergashdi.

Ro'molni ko'zlarigacha tushirib tang'igan juvon depo hovlisini changitib supurar, har supurgi tortganda, axlatga qorishib bir parcha non bo'lagi ham koptokdek dumalardi". Xikoyada detal va peyzaj bir – biri bilan uyg'un holda tasvirlanadi. Hikoya janrining xususiyatlari haqida so'z bor nazariy tadqiqotlarda ko'pincha hikoyada xarakterlar tayyor holda berilishi qayd etib kelinadi. Ayni hikoya qahramoni Nodirning xarakterini bunga misol qilish mumkin. Hikoya tugunida Nodirda paydo bo'lgan alam asta-sekin uni tuban insonga aylantirib boradi. Asar yakunida, keltirilgan parchadan ma'lum bo'lganidek, Nodir razil kimsaga aylangan, maqsadi yo'lida har qanday vaziyatdan foydalanadigan, tuban odam sifatida tasvirlanadi.

"Judolik quvonchi" hikoyasida ham non detali badiiy obraz darajasiga ko'tariladi. "Cholning xesh-aq-rabolariyu nevaralari juda ko'pligi o'sha kuni bilindi. Tayoq tutganlar serobligidan supada joy yetishmaydi. Qisqasi, keng hovlining deyarli chorak qismini tayoq tutganlar egalladi. Biroq ular orasida faqat ikki kishigina chinakamiga yosh to'kardi. Biri — Muso, ikkinchisi esa bola. Ammo u Muso tog'asi kabi ayrılıqdan emas, quvonchdan yig'lardi. Mana endi bovosini hech kim jerkimaydi, siltalamaydi, uyatga qoldiryapsiz, deb qo'lidagi burda nonini tortib olmaydi.

Bola ezilib-ezilib, quvonib-quvonib yig'lardi. Aytib-aytib, ichida esa kimlarnidir yanib-yanib yig'lardi. Deraza raxida esa kecha cholning qo'lidan tortib olingan non bo'lagi yotardi. Allaqachon unga ega chiqqan chumolilar bandalarining bu yolg'on uvvoslari bilan ishlari yo'q, non uvoqlarini bir jonusi bir tan bo'lib, imi-jimida o'z inlariga tashirdi". Har ikki hikoyada ham detallar badiiy vazifasi jihatdan mushtaraklik kasb etadi. Bizningcha yuqoridagi ikki detal adib ijodining o'ziga xosligi, individualligini ko'rsatib beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, N.Norqobilov hikoyalarida detalning badiiy funksiya ortib borib, serqirra mazmunga ega bo'ladi. Detal hikoya janri kompozitsiyasining tarkibiy qismi sifatida asar syujeti va obrazlar tizimi bilan poetik munosabatda bo'ladi. N.Norqobilov hikoyalarida detalni peyzaj va obraz kabi o'ziga xos turlari bor. "Alam", "Ayriliq quvonchi" hikoyalarida esa detal yangi qiyofaga ega bo'lib, asar qahramonlari va personajlarining ma'naviy qiyofasini ijtimoiy-mayishiy planda emotsiyal tarzda ohib beradi. Shuningdek, detal sarlavha darajasiga ham ko'rataladi. Detal sarlavhaga "Ro'molcha", "Tavatosh", "Kitob", "Quduq" "Qabrtosh", "Enatosh" va boshqa hikoyalarni sanash mumkin. Adib hikoyalarining katta qismini detal sarlavhalar tashkil etadi. Detal sarlavhalar haqida gapirganda aytib o'tish kerakki, hikoya syujetida badiiy detal muhim ahamiyatga ega bo'lish bilan birga, qahramonlar taqdirida ham katta rol bajargani uchun asar sarlavhasi darajasiga chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/yo-l-dosh-solijon-ov-detallar-tilga-kirganda-2007>
2. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/normurod-norqobilov-1953/normur-od-norqobilov-dashtda-hikoya>
3. Yoshlik jurnali 1983-yil 2-son.
4. Yoshlik jurnali 1983-yil, 2-son. B.39.
5. Sultonova M. Abdulla Qahhor uslubining ba'zi masalalari Fan 1967. B. 125-126.
6. Norqobilov N. Unutilgan qo'shiq, Hikoyalar. T.: Yosh gvardiya. 1990, B.37.
7. Norqobilov N. Tanlangan asarlar, T.: B.191.

MUNDARIJA

O'ZBEK TILSUNOSLIGI MASALALARI

Nishonboy Husanov. Navoyining antroponimlardan istiora yaratish mahorati.....	4
Ravshanxo'ja Rasulov. Fe'l asosli gaplarning kontragent valentligi.....	8
Nurislom Xursanov. O'zbek dramalaridametaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari.....	12
Muazzam Dedaxanova. Amaliy tilshunoslik obyektining tarixiy ildizlari.....	14
A.Madaminov. O'zbek tilida sintaktik derevatsiya usullari.....	16
Davlatiyor Jumashov. Alisher Navoiy asarlarida shakldosh so'zlarning qo'llanilishi.....	19
Y. Shirinova. Ziddiyatli muloqotni yuzaga keltiruvchi ayrim omillar.....	24
Muhabbat Madaminova. Internet muloqoti sintaksopragmatikasi.....	27
Akbar Ruziyev. Pragmalingistikada xususiy diskurs va uning oziga xo'sligi.....	28
Qurbanova Farog'at. Lingvistik tahlilda lug'atlarning o'rni va xorijda o'rganilishi.....	33
Gulshoda Shoniyozova. O'zbek punktuagrammalarining pragmalingistik aspektida o'rganilishi va uslu-biy vazifa bajarish talqinlari.....	36
Mavludaxon Oripova. O'zbek tilida sinesteziyaning voqelanishi.....	39
Maqsuda Xusanova. Tarixiy dignitonimlarning leksik-semantik xususiyatlari.....	42
Feada M. Samadbek. Afg'oniston o'zbek shevalarida ishlatilgan ravishdosh qo'shimchalari.....	44
Marxabo Erkinova. O'zbek tilida jargon, argo va slenglarning qo'llanishi.....	49
Saboxat Allanazarova. Matnlarning aspektga asoslangan hissiy tahlili.....	53
Shoxida Quraqova. Bugungi kunda piktogrammalarning o'rni va ahamiyati.....	56
Munisa Isaqova. Xalqaro yuridik terminologiyaga lotin tilining ta'siri.....	59
Maftuna Mamarasulova. Alla matnlarida milliy madaniyatning aks etishi.....	61
Mahliyo Xolmo'minova. Vatan konseptining o'rin-joy otlari bilan ifodalanishi.....	64
Xojiakbar Abdumannonov. Frazeologik minimumda frazeologik birlıklarning joylashtirish tamoyillari xususida.....	67
Ho Lim Song. Yangi o'zbek yozuvida unli harflarining belgilanish jarayonida tatar tilshunoslarining hissasi.....	69
Бауыржан Сайфуллаев. Өзбек және қазақ тілдері контакттының көркем шығармадағы ерекшелік тери.....	73
Gulshoda Ruziyeva. Dunyo tilshunosligida nutqiy aktlar klassifikatsiyasi.....	78
Shaxnoza Ismatova. Pragmatik tilshunoslik va siyosiy nutqlarning pragmatik xususiyatlari.....	79
Севара Баратова. Matn va badiiy tilni yuzaga keltiruvchi vositalar.....	82
Elbek Ro'ziyev. Siyosiy nutq diskursiv amaliyotning muhim elementi sifatida.....	90
Gavharoy Yormatova. Tilshunoslikda tolerantlik keng tushuncha sifatida va uning talqini.....	92
Xurshida Xaydarova. Izohli lug'atlardagi farqli, takrorlanmaydigan taqlid so'zlar talqini.....	95
Mashhura Yuldosheva. Xushmuomalalik strategiyalarining namoyon bo'lishi (Tohir Malik asarlari tahlili asosida).....	99
Sarvinoz Chariyeva. To'ra Nafasov asarlarida toponimlarning joylashish o'rnigako'ra izohi (Koson tu-mani misolida).....	101
Маржона Бернатова. "Shajarayi tarokima" asarida keltirilgan topononik birliliklar tasnifi.....	104
Shohista Eshankulova. O'zbek va rus tilidagi "mehmono'stlik" konseptli maqollarning lingvokultu-rologik xususiyatlari.....	107
Shahboz Ismatov. Yozuv. Yozuvning paydo bo'lishi.....	109
Gulasal Xayrullayeva. Turk va o'zbek tillaridagi "aldoqchi so'zlar".....	112

TIL TA'LIMI ISTIQBOLLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Dilnoza Boymatova. Ona tili darsliklarida “gap bo‘laklari tartibi” mavzusini o‘qitish.....	118
Shahoza Yunusova. Shiorlar reklama e’loni sifatida.....	120
Manzura Narmatova. Xalq dostonlarida uy-ro‘zg‘or buyum va jihozlariga oid maishiy leksemalar (“Ma-likha ayyor” va “Bahrom va Gulandom” dostonlari misolida).....	123
Nilufar Sultanova. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirish.....	126
Berdibek Yusupov. O‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini turkiy xalqlar adabiyoti vositasida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	128
M. Zaripova. O‘quvchilarning mutolaa madaniyatini shakllantirish orqali og‘zaki nutq ko‘nikmalariga innovatsionyondashuv.....	131
Zebiniso Davronova. Ona tili darslarida o‘quvchilarning tasviriy matn yaratish ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasi.....	136
Hasamuddin Hamdard. Afg‘oniston hududidagi o‘zbek tili va adabiyotining taraqqiyotigarovi.....	140
Feruza Sharopova. O‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga doir yondashuvlar.....	145

O‘ZBEK ADABIYOTI TADQIQ, TAHLIL VA TALQIN MUAMMOLARI

Qozoqboy Yo‘ldoshev. Egamanlik davri o‘zbek adabiyotining yetakchi belgilari.....	150
Nusratullo Jumaxo‘ja. “Navoyi” taxallusi imlosi va badiiy ma’no miqyoslari.....	154
Islomjon Yakubov. “Otamdan qolgan dalalar” romani mavzu va uslubida kinoyaviy-satirik ruh.....	162
Usmon Qosimov. Adabiy tanqid adiblar nazdida.....	167
Marg‘uba Abdullayeva. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash.....	169
Zulkumor Mirzayeva. “Dahshat” “Kitobxon javobi” tajribasida.....	172
Gulnoza Jurayeva. Bolalar she’riyatida shakliy-mazmuniy yangilanish hamda izlanishlar.....	176
Xurshida Xamrakulova. Kavsar Turdiyeva ijodiga chizgilar.....	182
Shahoza Raxmonova. Muxammas-qasidalarda vazn va mavzu mutanosibligi.....	188
Tozagul Matyoqubova. G‘afur G‘ulom she’riyatida lirik “men”i tasviri.....	190
Zuhra Mamadaliyeva. Alisher Navoiy ijodida raqib obrazining ramziylik xususiyati.....	193
Sohiba Umarova. Xorazm devonlarida gul tasviri va timsoli.....	196
Xusnigul Djurayeva. Husayn Boyqaro ijodiy merosining Turkiyada o‘rganilishi.....	198
Nodira Xolikova. Asrlar osha xotin-qizlar obrazi takomili.....	201
Muhayyo Yo‘ldosheva. Nuqra erkka tashna yuraklar.....	206
Matluba Jabborova. Lirkada Jomi Jam talqini.....	209
Shahlo Hojiyeva. Cho‘lpon va Robindranat Thokur: adabiy ta’sir masalalari.....	212
Zarina Sayliyeva. Ey, nubuvvat xaylig‘a xotam bani odam aro, Gar alar xotam, sen ul otkim, bo‘lur xotam aro.....	215
Dilafruz Nazarova. Xoja ijodida an’anaviy obrazlar.....	219
Husan Maqsudov. Alisher Navoiy g‘azallarida fano va baqo talqini.....	223
Quvonchbek Mamiraliyev. Istiqlol davri o‘zbek she’riyatida vazn masalasi.....	228
Zoya Sarsenbaeva. Ingliz va o‘zbek adabiyotida modernizm.....	230
Shoxista Mahmudova. Erkin A’zamning ijodkor obrazini yaratish mahorati.....	234
Yulduz Xaitova. Shoira Ra’no Uzoqova lirkasida transformatsiyalanish masalasi.....	237
Akbar Jumanov. Mumtoz adabiyotda Navoiyning roli.....	240

Bekzod Qarshiyev. Erkin A'zam qissalarida hayot haqiqati va talqin mahorati.....	244
Nigora Bo'tayeva. XIX asr oxiri – XX asrning boshlari Xivadagi yangilanishlarda Komil Xorazmiyning o'rni.....	245
Mohira Soberova, Charos Karshiyeva. Mustaqillik davri hikoyalarida milliy qadriyat masalasi va obraz psixologiyasiningyoritilishi.....	249
Dilfuza Avazova. "Hajnoma" va "Haj daftari"da Muhammad alayhissalom obrazi talqini.....	252
Dilorom Hayitboyeva. Ubaydiy adabiy merosi.....	255
Kumush Abdusalomova. Matnazar Abdulhakimning so'z qo'llash mahorati.....	257
Zaxiriddin Sulaymanov. Agiografik janrlarning mavzu yo'nalishi va poetik xususiyatlari.....	260
Yulduz Jo'rayeva. Yassaviy va Ubaydiy ijodida hikmat janri.....	265
Мухаммедин Баутдинов. Абдулла Орипов ва Улмамбет Хўжаназаров фалсафий услубидаги муштараклик.....	268
Aziza Eshdavlatova. Faxriyor she'riyatida vizual tasvir imkoniyatlari.....	271
Dilbar Hasanova. Ahmad A'zam ijodining o'rganilishiga bir nazar.....	274
Charos Shomurotova. Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" asari syujetida badiiy tasvir vositalari....	275
Muhammadqodir Toshpo'latov. Behzod Fazliddin lirkasida badiiy detallar poetikasi.....	281
Durdona Djalilova. Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanida Gavharshodbegin obrazi....	286
Safar Allayorov. Jiddiy izchil izlanishlar samarasi, yangicha ijodiy barkamollik alomati.....	288
Xumora Jo'raqulova. Ma'rifiy roman tematikasi (N. Karimov romanlari tahlili misolida).....	293
Aziza Almardonova. Navoiy qit'alarida nafsni tiyish masalasi.....	296
Nilufar Chuliyeva. Zamon va makonning mifopoetic talqini.....	299
Xurshida Nishonova. A'zam O'ktam she'riyatida poetik obrazlar: an'ana va vorisiylik.....	304
Nozima Sulaymonova. Adib Xurshid Do'stmuhammadning badiiy qahramon yaratish uslubi haqida ayrim mulohazalar.....	307
Otabek Safarov. Faxriyor prizmasi: tasavvur tarbiyasidan ijtimoiy mas'uliyatgacha.....	310
Anzirat Abdikarimova. Mustafo Introvert shaxs obrazining tipik vakili.....	315
Musharraf Abdiraimova. Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida rang simvolikasi.....	317
Gulinor Xolmurotova. Abduqayum Yo'doshning "Puankare" hikoyasida inson va davr muammosi badiiy talqini.....	322
Niyatqobil Ashurov. Nodir talant sohibi.....	325
Mohlaroyim Ne'matjonova. Paramonning iste'dodli ijodkori.....	328
Shahnoza Ibragimova. Luqmon Bo'rixonning "Sirli muallim" qissasida o'qituvchi obrazining yaratilishi.....	331
Shohsanam Ilashova. Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanida sadoqat (do'st) obrazi.....	332
Barchinoy Abdirazzoqova. Halima Xudoyerdiyeva she'riyati xususida ba'zi mulohazalar.....	334
Azamat Xayrullayev. Hikoya janrida badiiy detalning poetik vazifasi.....	336

ADABIYOT O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Hoshimjon Ahmedov. Qozoqboy yo'ldoshning pedagogik qadriyatları.....	340
Gulbahor Qurbonova. Badiiy adabiyotda odob-axloq masalasining badiiy talqini.....	342
Oysuluv Musurmonkulova. Adabiy ta'lilda o'quvchilarni fikrlashga o'rgatishda kreativ yondashuv.....	344
Maxmuda Yuldasheva. Nasriy asarlarni o'qitishda evristik usullardan foydalanish amaliyoti.....	349
Doniyor Yelmurodov. Jadid adabiyotida ta'lim-tarbiya muammolari.....	354
Norjona Qurbonova. Oskar uayldning "Baxtli shahzoda" asarini o'qitish.....	356
S. Shermuxamedova. Adabiyot fanini o'qitishning didaktik va metodik asoslari.....	360

Bosishga 2024-yil 15-aprelda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 _{1/32}. “EB Garamond” garniturasi.
Offset bosma usulida bosildi.
22.8 bosma toboq. Adadi 100 nusxa.
16/04-son buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Anorbooks” nashriyotida tayyorlandi va chop etildi.
Tasdiqnoma raqami №5566
Toshkent shahri, Qozirobod,
Kamolon darvoza, 2-uy.
(+99899) 335-66-00.